

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Sh.Abdugʻaffor

XX asr boshlarida Fargʻona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Taʼlimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida Oʻzbekiston SSR maktablarida tarix fanining oʻqitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yoʻlidagi oʻziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qatagʻon siyosati qurboni boʻlgan jadidlarning rehabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yoʻlchiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Fargʻona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga taʼsiri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik anʼanalari bilan bogʻliq nomoddiy madaniyat (Fargʻona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar (Fargʻona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157

**YANGI QARASHLARGA BOY TADQIQOT**

Abdulla Rasulov. Rossiyada g'ayritabaa - musulmonlar. - Toshkent: Javohir-Ilm-Nashr, 2024. 264 b.

Usmonov Bahriddin Ahmedovich

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası mudiri, tarix fanlari doktori, professor.

Akbarov Ravshan Xalimovich

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti v.b. t.f.f.d., PhD

Sovetlar hukmronligi davrida ham Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan musulmon xalqlarga nisbatan ko'pincha "mensimaslik", "madaniyatdan ortda qolgan" kabi qarashlar ustun bo'lgan. Imperiya mustamlakalari bo'lgan chekka o'lkalardagi musulmonlarga nisbatan bunday qarash Markaz uchun hukmronlik qilish imkoniyati beradi, deb hisoblangan. Rossiya imperiya bo'lmasdan avval xristianlashtirish boshlangan bo'lib, o'zi tomonidan bo'ysundirilgan musulmon xalqlarni xristian diniga kiritish [majburlovchi choralarni ixtiyoriy-majburiy yo'l bilan chora etish usuli orqali - muallif], ular madaniyatini "qoloqlik"dan chiqarishga "harakat" qilgan. Aslida ham shunday edimi? degan savol bugungi kunda barchani o'yantiradi. Buni tushunish uchun Rossiyaning mustamlakaga aylantirgan hududidagi xalqlarga nisbatan yuritgan siyosatini ko'rib chiqish eng maqbul yo'ldir.

Rossiya mustamlakachiligi, uning bosib olingan hududlarida yuritgan siyosatiga doir ko'plab kitoblar nashr etilgan. Shular qatoriga tarix fanlari doktori, professor Abdulla Rasulovning "Rossiyada g'ayritabaa-musulmonlar" nomli kitobini ham kiritish mumkin. Muallifning yaratgan tadqiqoti kirish, uch bob, boblarga mos paragraflar va yakunda ko'rilgan masalalar yuzasidan chiqarilgan xulosalardan iborat.

Muallif bu tadqiqotida tarixshunoslik uchun keng foydalanilmaydigan iboralarni qo'llaydi. Masalan, "g'ayritabaa", "xizmatdagi tatarlar", "g'ayritabaa-musulmonlar", "panturonizm", "pantatarizm" va hokazo. Kitob davomida ushbu atamalarga izohlar berilgan. Shuning bilan birga, bugungi kungacha tatar xalqiga nisbatan ishlatilgan "no'g'oy" atamasini aslida ruslar tomonidan atayin qo'llanilganligi va bu tarix kitoblari hamda aholi orasida keng yoyilganligini ta'kidlaydi. Chindan ham XX asr boshlarida va hatto yaqin kunlargaacha tatar xalqiga nisbatan "no'g'oy" atamasi keng yoyilgan edi.

Asarning birinchi bobi "Rossiyada g'ayritabaa-musulmonlarni tutgan o'rni" deb nomlanib unda, podsho Rossiyasi tomonidan hududiy jihatdan bosib olingan yerlarni "ma'naviy jihatdan" ham bo'ysundirish, ya'ni ular dinini o'zgartirish maqsadida cho'qintirish yo'lida olib borilgan siyosatni butun jihatlari bilan ochib berilgan. Masalan, Qozon tatarlarini cho'qintirish dastlab o'z ixtiyoriy yuz bergan bo'lsa, keyinchalik ularni majburlashning turli usullaridan foydalanilgan. Ixtiyoriy cho'qinganlarga turli imtiyozlar berilgan. Cho'qingan va o'z dinida qolganlarga bir hududda yashashga ruxsat berilmagan. Sekin-astalik bilan hukumat bo'ysundirilgan tatarlarga majburlashning boshqa usullarini ham qo'llagan. Buning sababi birinchidan, musulmonlarni o'z dinidan voz kechishi juda qiyinchilik bilan kechgan bo'lsa, ikkinchidan, cho'qinganlarning aksariyati tez orada o'z diniga qaytgan. Bunday holat hukumatni bu borada yangicha siyosat yuritishga majbur qilgan. Masalan, Yekaterina II davriga kelib, bo'ysundirilgan musulmonlarga nisbatan yuritilayotgan siyosatda o'zgarish bo'lgan. Chunki yangidan zabt etilgan qozoq hududlarida an'anaviy siyosat ish bermasligi mumkin edi. Shuning uchun ancha vaqtdan buyon imperiya tarkibida bo'lgan va "ishonchli" darajasiga yetishgan tatarlardan qozoqlarni bo'ysundirishda foydalanilgan. Qozoqlarni cho'qintirishning samarasiz ekanligini tushungan Rossiya hukumati ularni bo'ysundirishda, qozoqlardagi qabilachilik udumlarini yengishda islom dinidan foydalanishni maqsad qildi. Aslida qozoqlarda islom an'analarga rioya etish masalasida o'troq musulmon xalqlariga nisbatan farqlarning mavjudligi sababli ular orasida tatarlar vositasida islomiy qarashlarni chuqurlashtirish va

shu orqali qozoqlarning qabilaviy iyerarxiya tizimni yo'qotish hamda dashtlarida mustahkam o'rinish maqsad qilgan edi. Muallif ushbu siyosatni ishonarli tarzda ochib bera olgan.

Asarning ikkinchi bobi "Rossiya Davlat dumasida g'ayritabaa-musulmon deputatlari" deb nomlangan. Aslida asarning mag'zi mana shu yerda. Chunki ushbu ikkinchi bobni mutolaa qilar ekansiz, juda ko'p tahlillarga duch kelasiz, bugungi kundagi ba'zi geosiyosiy muammolarga javob topgandek bo'lasiz. Masalan, Rossiyadagi parlamentchilik, ya'ni Davlat dumasining tashkil etilishi. Bugungi kungacha masalaga bag'ishlangan tadqiqotlarda rus parlamentchiligi hukumatning og'ir siyosiy krizisi natijasida tashkil etilgan deya talqin qilinadi. Muallif ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, aslida podsho hukumati parlamentchilikni tashkil etish orqali hukumatga qarshi kuchlarni zaiflashtirishni maqsad qilgan edi, deya xulosa qiladiki, bu tadqiqotchining masalaga butunlay yangicha nuqtai nazar bilan qaraganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Davlat dumasida "Musulmonlar fraksiyasi" faoliyati, ularning qanday yutuqlarga erishganliklari va kamchiliklari tahlil qilingan.

Ushbu bob davomida o'quvchining e'tiborini tortadigan jihatlardan biri "panislomizm" va "panturkizm" masalalaridir. O'z vaqtida rus mualliflari A.Arsharuni va X.Gabidullin o'zlarining "Очерки панисламизма и пантюркизма в России" nomli asarlarida to'qilgan "ibora" ekanligini ta'kidlagan bo'lsa-da, "panislomizm" va "panturkizm" atamaları imperiyadagi yashovchi musulmonlarga nisbatan keyin ham yorliq sifatida yopishtirishda davom etildi. Muallif ham o'z davrida (1907-1912-yillar – mualliflar) Davlat duması deputatı S.Maqsudov faoliyatini yoritish orqali buning asossiz da'vo ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan. YA'ni, S.Maqsudov Dumadagi chiqishlarida panislomizm g'oyasi yoki harakati aslida mavjud emasligi, rus ma'mur va tahlilchilari, pangerman, panslavyan oqimlari bo'lsayu, nima uchun panislomizm bo'lmasligi kerak degan asossiz da'voni puch ekanligini ibotlashga uringanligini ta'kidlaydi. Ushbu "panislomizm" g'oyasining musulmonlarga yopishtirilishi bugungi kunda AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining Yaqin Sharqdagi energiya bazalarini bosib olish uchun kurashdagi geosiyosiy o'yinlari va buni butun dunyoga ishontirganliklarini beixtiyor esga tushiradi. Bu bilan muallif endigina rivojlanayotgan davlatlarni geosiyosat masalasida nihoyatda ehtiyot bo'lishga chaqirayotgandek...

Asarda muallif Sadri Maqsudov faoliyatini yoritish orqali har bir davrda millat uchun umrini bag'ishlovchi insonlar o'rtaga chiqishini ko'rsatishga harakat qilgan. Masalan, S.Maqsudov Davlat duması deputatı, uning yashashi uchun hech qanday muammo yo'q. Lekin u musulmonlar turmush tarzini o'zgartirish, taraqqiy ettirish yo'lida kurashini davom ettirgan. Uning faoliyati joylarda ta'lim tizimini isloh qilishni tezlashtirish, milliy uyg'onish va siyosiy faollikka xizmat qilgan. Masalan, S.Maqsudovning 1910-yil Turkistonga xizmat safari o'lka hayoti uchun samarali bo'lgan. Uning safaridan keyin Turkistonda to'xtab qolgan parlamentchilik haqidagi qarashlar qayta jonlana boshlagan. Aynan shu yili M.Behbudiy "Samarqand" gazetasida o'zining davlat boshqaruvi usullari haqidagi siyosiy maqolasini e'lon qiladi. S.Maqsudov xizmat safaridan keyin o'lka ta'lim tizimini isloh qilish borasida jonlanish kuzatilgan. Chunki, uning Turkiston o'lkasi bo'ylab safari chog'ida joylardagi e'tibor qaratgan birinchi jihat ta'lim maskanlari bo'lgan. Turkiston rayon muhofaza bo'limi ayg'oqchilari doimiy kuzatuvı ostida ekanligini bilsa-da, u to'g'ri deb bilganidan qolmagan. Muallif ushbu masalani tarixiy faktlar asosida ko'rsatib bera olgan.

S.Maqsudov Dumadagi chiqishlarida Rossiya hukumatini Yaqin Sharq masalasida Usmonli davlati bilan yaqinlashuvga chaqiradi. Uning bu chaqirig'i o'quvchida S.Maqsudov go'yo bugungi kunlarni ko'ra olgandek taasurot qoldiradi. S.Maqsudovning Turkiya va Rossiya o'rtasidagi yaqinlashuv bo'lishi kerak, degan da'vosiga muallif ko'plab isbotlarni keltirilganligi muallifning ayni masaladagi yutug'idir deya e'tirof etish mumkin.

Rossiyaning Turkiston o'lkasi aholisini harbiy xizmatdan chetlatishi, mavjud ta'lim tizimini isloh qilmaganligi aslida o'lka hayoti uchun juda katta zarar edi. Davlat duması Musulmonlar fraksiyasi faoliyatida esa musulmon aholini harbiy sohaga jalb etish, milliy tilda umumiy ta'limni joriy etish kabi masalalar dolzarb bo'lgan. Muallif aynan, ta'lim masalasiga urg'u berib, yetakchilarning nima uchun zo'r berib, mahalliy va milliy ta'limni joriy etishga, bu borada qonunlar qabul qilish uchun kurashganliklarini atroflicha tushuntirishga harakat qilgan. Chunki imperiyadagi musulmon yetakchilari "g'ayritabaa aholining" harbiy xizmatga jalb etilishi, chekka o'lkalarda milliy tilda maktablarning joriy etilishi millatning siyosiy jihatdan uyg'onishiga ijobiy ta'sir qilib, "tenglar ichida teng"dek turish imkonini berishi mumkin edi. Bu esa imperiyachilik kayfiyatidagi qatlamga yoqmasligi tabiiy bo'lib, shuning uchun ham musulmon vakillarining bu boradagi takliflari qabul qilinmagan.

Bizga ma'lumki, qozoqlar XVIII asrdan Rossiya imperiyasiga bo'ysundirila boshlangan. Podsho Rossiyasi hukumati qozoqlarni imperiyaga integratsiya qilishda dastlab tatarlardan

TARIX

foydalangan. Keyinchalik qozoqlar orasida tatarlashish jarayoni kuchaygach, tatarlarni bu masaladan chetlashtirishgan. Bu go'yo O'rta Osiyoni bosib olishda rus-yahudiy ittifoqiga o'xshaydi. Ruslar O'rta Osiyoni bosib olish jarayonida yahudiylardan unumli foydalanishgan. Masalan, Samarqandni bosib olishda ruslarga yahudiylar xizmati qo'l kelgan. Lekin keyinchalik, yahudiylar Turkistondagi butun paxta savdosini o'z qo'llariga kiritgach, ularni chetlashtirishga harakat qilganlar. Samarqand viloyatidan saylangan mahalliy deputat T.Xalilov aynan yahudiylar faoliyatini cheklash masalasida Dumaga takliflar bergan. Chunki imperiya hukumati bir paytlar ittifoqchisi bo'lgan yahudiylarni to'g'ridan-to'g'ri bu ishlardan chetlata olmas, bu ishni "g'oyibdan kelgan qo'l yordamida" amalga oshirmoqchi bo'lgan edi. Qozoqlarni imperiyaga butunlay qo'shib olishda dastlab tatarlar xizmatidan foydalanish, keyinchalik ularni turli nayranglar bilan bundan chetlatish ham shunga o'xshash usullardan biridir. Muallif ham bu jarayonni ishonarli tarzda yoritib bera olgan.

Asarning so'nggi uchinchi bobi asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida Rossiya hukumatiga nisbatan xayrixohlikni kuchaytirish yo'lida olib borgan siyosatini yoritib berishga qaratilgan. Unga ko'ra, Rossiya hukumati O'rta Osiyoda hukmronlikni o'rnatishning dastlabki qadami sifatida qaralgan qozoqlar orasida ruslarga nisbatan xayrixohlikni vujudga keltirishda tatarlardan foydalanganligi, lekin bu siyosat aks ta'sir ko'rsatib, qozoqlar orasida ruslarga nisbatan emas, aksincha aslida musulmonlik kayfiyati kuchli bo'lgan tatarlar ta'sirining kuchayishiga sabab bo'lgan. XIX asr o'rtalaridan boshlab rus hukumati o'z xatosini to'g'rilash maqsadida qozoqlarni tatarlardan uzoqlashtirish siyosatini boshlagan. Buning uchun qozoqlarning mahalliy boshqaruvida muhim rol o'ynagan tatarlar hokimiyatdan chetlashtirilib, ular o'rniga rus tili va madaniyatiga yaqin bo'lgan qozoqlar tayinlana boshladi. Buning natijasi shunday bo'ldiki, qozoq yoshlari o'z ota onalari bilan milliy tilda emas, balki rus tilida muloqot qila boshlaganlar. Masalan, ushbu maqola mualliflaridan biri R. Akbarov Turkiyada o'qib yurgan kezlari (1992–1994) Yerjan ismli bir qozoq yigiti o'z otasi bilan rus tilida muloqot qilganligiga guvoh bo'lgan. Holbuki, Yerjanning aytishicha, uning otasi qozoq tili va adabiyoti muallimi bo'lgan hamda bu kabi oilalar ko'pchilikni tashkil etgan.

Muallif o'z tadqiqoti davomida imperiya "xristianlashtirish" siyosatidan voz kechgan bo'lsa-da, ruslashtirish siyosatidan voz kechmaganligini ta'kidlaydi. Bu bilan muallif, imperiya o'z siyosatida umumiy maqsaddan chekinmagan holda, "niqob"inigina o'zgartirganligini ta'kidlaydi. Masalan, buni 1906-yil 31-martda qabul qilingan "Rossiyaning sharqiy va janubiy sharqida yashovchi g'ayritabaalar boshlang'ich o'quv yurti qoidalari"ga oid qarorda ko'rish mumkin. Bunga ko'ra, musulmon maktablarida Rossiyadan chetda chop etilgan kitoblardan foydalanish man etiladi. Shuning bilan birga, mahalliy aholiga o'z ona tilida o'qish masalasi ham ikkinchi darajaga tushirilgan. Rus tilini o'rganish majburiy fanlar qatoriga kiritilgan. Ta'lim tizimining har qanday turida ruslardan bo'lgan inspektor ta'lim dargohini istaganicha taftish qilish huquqiga ega bo'lgan. Musulmon ta'lim tizimida bu va bu kabi ko'plab cheklovlar o'rnatilgan edi. Shuning uchun haqli ravishda Davlat dumasidagi Musulmon fraksiyasi bu qonun loyihasini qabul qilinishiga qarshi chiqqanlar. Loyihaga o'zlarining takliflarini berganlar. Afsuski, musulmon vakillarining bu sa'y-harakatlariga qaramasdan, loyiha qonun tusini olmadi va musulmon maktablari isloh qilinmasdan qolib ketdi.

Asarning so'nggi qismi "harbiy majburiyat" masalasiga bag'ishlangan. Bunda muallif, 1916 yilgi mardikorlikka olish ishlari ancha oldin boshlanganligini ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, O'rta Osiyo aholisi garchi dastlab harbiy xizmatdan ozod etilgan bo'lsa-da, bu masalaga qarash o'zgarganligi, XIX asr davomida rus armiyasi saflarida 1 – 1,5 million musulmon askarlari xizmat qilganligi, XX asr boshidan boshlab, O'rta Osiyo mahalliy aholisini ham armiya safiga jalb etish harakatlari boshlangan edi. Lekin hukumatning mahalliy aholi haqida harbiy sohadan uzoq, agar ular harbiy sohani o'zlashtirsalar imperiya uchun yomon oqibatlar bo'lishi mumkinligidan xavfsirab, bu masalani amalga oshirilishini kechiktiradilar. Va nihoyat, 1916-yilgi shartlar O'rta Osiyo aholisini front orti ishlari uchun safarbar qilinganligi va bu boradagi muallif fikrlari oxirgi bo'limda bayon etilgan. Unga ko'ra, mamlakat miqyosida bunday islohot darajasidagi ishlarning amalga oshirilishida shoshma-shosharlik qilish qanday yomon oqibatlarga olib kelishi ta'kidlanadi. Oxirgi bo'limlarni o'qish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, monarxiyaga, diktaturaga, avtoritarizmga asoslangan jamiyatlarda markaziy hokimiyat tizimlari oradagi ma'muriy bo'linmalarining noto'g'ri ma'lumot taqdim qilishlari orqali haqiqiy ahvol bilan tanish bo'lmasligi yoki o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida siyosatidan voz kecha olmaslik qanday yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rish mumkin.

Umuman, tarix fanlari doktori, professor A.Rasulov tomonidan nashr etilgan "Rossiyada g'ayritabaa-musulmonlar" kitobi XVIII–XIX asrlarda podsho Rossiyasi tomonidan musulmon xalqlar

ustidan hukmronlikni o'rnatishga bag'ishlangan tahliliy asar bo'lib, tarixni o'rganish uchun juda muhim. Muallifga ushbu tadqiqoti uchun chuqur minnadorchilik bildirgan holda, kelgusida undan yangi tadqiqotlarni kutib qolamiz.